

**GIPOTAKSEMIK QO‘SHMA GAPLARNING BOSHQA GAP TURLARI
BILAN MA’NODOSHLIGI VA BUNING TARJIMASHUNOSLIKDAGI
AHAMIYATI**

Madinabonu Shavkatovna Sodiqova

O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti, xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi
1-kurs talabasi

e-mail: madinabonusodiqova34@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi gipotaksemik, ya’ni ergashgan qo‘shma gaplarning boshqa gap turlari bilan ma’nodoshlik hosil qilishi va bunda gap strukturasi, bog‘lovchi vositalardagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, ingliz tilidagi gipotaksemik gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda gap turlari orasidagi ma’nodoshlikning o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Tahlil jarayonida amerikalik taniqli yozuvchi Harper Li qalamiga mansub "To kill a mockingbird" ("Mazaxchini o‘ldirish") asaridan misollar keltiriladi hamda tarjimada yuz bergen ayrim muammolarni ko‘rib chiqish orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi ergashgan qo‘shma gaplarning o‘ziga xos ayrim allomorfik jihatlari chog‘ishtiriladi.

Kalit so‘zlar: gipotaksemik qo‘shma gap, ergash gap, bosh gap, bog‘lovchi vosita, sodda gap, politaksema, subordinativ bog‘lanish, gaplar o‘rtasidagi ma’nodoshlik, allomorfik jihat, badiiy tarjima.

ABSTRACT

This article discusses the importance of semantic relationship between hypotaxemic compound sentences and other types of sentences, as well as the changes in the structure of sentences and connectives. Moreover, it addresses the importance of the semantic similarity between sentences in translating English

hypotaxemic compound sentences into Uzbeki. In the course of the analysis, examples from the famous American writer Harper Lee's work "To kill a mockingbird" are given and some problems encountered in the translation are discussed. In this way, some allomorphic aspects of English and Uzbek complex sentences are compared.

Keywords: *hypotaxemic compound sentences, the subordinate clause, the principal clause, connectives, simple sentence, complex sentence, allomorphic aspect, semantic compatibility between sentences, artistic translation.*

KIRISH

Ma'lumki, qo'shma gaplar nafaqat sintaksis bo'limi, balki butun jahon tilshunosligining o'ziga xos ahamiyatga ega mavzusi hisoblanadi. Shu sababli ham ko'plab o'zbek va jahon tilshunos olimlari bu sohada ilmiy tadqiqotlarini olib borishgan hamda ushbu izlanishlar hali ham davom etmoqda. Jumladan, N.Mahmudov, A.G'ulomov, M.Asqarova, A. Nurmonov, R.Sayfullayeva, B.Mingliyev, J.Bo'ronov, G'.Hoshimov, I.O'sarov kabi o'zbek olimlari ayni sohada o'z qarashlarini bildirib, asarlari orqali tilshunosligimiz rivojiga hissa qo'shganlar. Qo'shma gaplar mavzusining yanada chuqur o'rganilishi bugungi kun uchun juda muhim, ayni damda dolzarb muammodir. Negaki, ushbu aspektda olib borilgan izlanishlar nafaqat tilshunosligimiz, balki boshqa sohalar, deylik, tarjimashunoslik uchun ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, badiiy asarlarni tarjima qilish mobaynida ham bu mavzuda yetarlicha bilim va ko'nikmalar talab qilinadi. Shu o'rinda badiiy tarjimashunoslik sohasiga o'z asar va tarjimalari orqali salmoqli hissa qo'shgan G'ayulla as-Salom, N.Komilov, I.G'afurov, G.Odilova, R.Shirinova kabi olimlarimizni eslab o'tish joizdir. Keling, endi bu maqolamizda qo'shma gap turlaridan biri bo'lgan gipotaksemik qo'shma gaplar haqida so'z yuritib, uning boshqa gap turlari bilan ma'nodoshlik hosil qilishini ayni misollar bilan ko'rib chiqsak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bilamizki, o'zbek tilida tobelashtiruvchi bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida aloqaga kirishib, biri ikkinchisiga mazmunan tobe

bo‘lib, uni izohlab kelgan gaplar birikmasidan tashkil topgan qo‘shma gaplar ergash gapli qo‘shma gap deyiladi[4;133]. U ikki qism: ergash va bosh gapdan iborat bo‘lib, ergash gap bosh gapga nisbatan qanday funksiya bajarishiga ko‘ra bir qancha turlari mavjud. Ingliz tilida gipotaksemik qo‘shma gaplar *complex sentence* atamasi bilan yuritilib, unga quyidagicha izoh beriladi: "A complex sentence consists of a principal clause and one or more subordinate clauses"[1;281]. Albatta, ikki tildagi qo‘shma gaplar ham o‘xhash xususiyatlarga ega. Demak, bu degani biz ingliz tilidagi ergashgan qo‘shma gaplarni ayni struktura va mazmun saqlangan holda o‘zbek tiliga tarjima qila olamizmi? Keling, buni misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Ing. *We were far too old to settle an argument with a fist-fight, so we consulted Atticus[. ,4].*

O‘zb. *Bahsni musht bilan hal qiladigan yoshdan allaqachon o‘tib bo‘lgandik, shuning uchun Attikusning fikrini so‘rashga qaror qildik[5,4].*

Yuqorida badiiy asardan keltirilgan misolimiz sabab- natija munosabatidagi hol ergash gapli qo‘shma gapga misol bo‘ladi. Tarjimon Mushtariy Mamadaliyeva ushbu gipotaksemik qo‘shma gapni tarjima qilar ekan, uning strukturasi o‘zgarmagan, ya’ni politaksema ko‘rinishida mazmuni ham saqlangan holda tarjima qilgan. Endi payt munosabatli hol ergash gapga misol keltirsak:

Ing. *When enough years had gone by to enable us to look back on them, we sometimes discussed the events leading to his accident[. ,3].*

O‘zb. *Bir necha yil o‘tgach har gal shu voqeani eslaganimizda o‘sha noxush hodisaga olib kelgan sabablar haqida tortishardik[5,3].*

Yuqoridagi misolda ko‘rib turganimizdek tarjima jarayonida politaksemaning monotaksemaga aylanishi kuzatiladi. Lekin tarjimon ergashgan qo‘shma gapni sodda gap holida tarjima qilib xatolikka yo‘l qo‘yganmi? Yo‘q, albatta. Negaki, gapning mazmuniga ziyon yetmagan. Agar tarjimon ushbu gapni qo‘shma gap ko‘rinishida tarjima qilganida tasvirga ziyon yetishi, ifodalilik yo‘qolishi mumkin edi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, gap turlari orasidagi ma’nodoshlik tarjimaning mukammal bo‘lishida ulkan ahamiyatga ega ekan.

Ing. *Calpurnia always won, mainly because Atticus always took her side[. ,6].*

O‘zb. *Bizning tortishuvimiz hamisha bir xil uning g‘alabasi bilan tugardi, chunki Attikus hamma vaqt Kelpurniyaning tarafini olardi[5,8].*

Keling, yuqoridagi gipotaksemik qo‘shma gapni turli ko‘rinishda tarjima qilib ko‘ramiz. Tarjimon gap tuzilishini saqlab qolgan holda tarjima qilgan. Bunda bog‘lovchi vosita *because* bog‘lovchisini o‘zbek tilidagi ayni muqobil varianti *chunki* bog‘lovchisi ko‘rinishida tarjima qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi bog‘lovchi vositaning o‘zgartirilishi gap tuzilishiga ham ta’sir qilishi mumkin. Misol uchun:

O‘zb. *Attikus hamma vaqt Kelpurniyaning tarafini olgani uchun bizning tortishuvimiz hamisha uning g‘alabasi bilan tugardi.*

Bu tarjimamizda ma’no saqlab qolningan holda, biroq sodda gap ko‘rishida tarjima qildik. Yoki:

O‘zb. *Attikus hamma vaqt Kelpurniyaning tarafini olardi-yu, bizning tortishuvimiz hamisha uning g‘alabasi bilan tugardi.*

Endi bo‘lsa gap mazmuniga ziyon yetmagan holda bog‘langan qo‘shma gap ko‘rinishida tarjima qildik. Bundan kelib chiqadiki, ergashgan gap nafaqat sodda gap, balki parataksemik qo‘shma gaplar bilan ham ma’nodoshlik hosil qila olarkan. Ammo bu hammasi emas.

O‘zb. *Attikus hamma vaqt Kelpurniyaning tarafini olardi, bizning tortishuvimiz uning g‘alabasi bilan tugardi.*

Kollotaksemik, ya’ni bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar ham, ko‘rib turganimizdek, ergashgan gap bilan ma’nodoshlik hosil qilishi mumkin ekan.

NATIJALAR

Gap turi	Gipotaksemik qo‘shma gap	Parataksemik qo‘shma gap	Kollotaksemik qo‘shma gap	Monotaksema
Misol	Bizning tortishuvimiz hamisha bir xil uning g‘alabasi	Attikus hamma vaqt Kelpurniyaning tarafini olardi-yu,	Attikus hamma vaqt Kelpurniyaning tarafini olardi,	Attikus hamma vaqt Kelpurniyaning tarafini olgani

	bilan tugardi, chunki Attikus hamma vaqt Kelpurniyaning tarafini olardi.	bizning tortishuvimiz hamisha uning g‘alabasi bilan tugardi.	bizning tortishuvimiz uning g‘alabasi bilan tugardi.	uchun bizning tortishuvimiz hamisha uning g‘alabasi bilan tugardi.
Bog‘lovchi vosita	chunki (ergashtiruvchi bog‘lovchi)	-yu(yuklama, bog‘lovchi vazifasidagi vosita)	vergul (tinish belgi)	uchun (ko‘makchi)

MUHOKAMA

Biz o‘zbek tilidagi ergashgan qo‘shma gaplarni boshqa gap turlari bilan ma’nodoshlik hosil qilishini ko‘rib chiqar ekanmiz, yana bir muhim masalani unutmasligimiz lozim. Yuqoridagi jadvalga e’tibor qaratsak, albatta, misoldagi gaplarning mazmuni deyarli bir xil bo‘lishiga qaramasdan, ularning tuzilishi va bog‘lovchi vositalar turlichadir. Bu esa gaplar ma’nosida ayrim nozik farqlarni yuzaga chiqaradi. Jumladan, gipotaksemik qo‘shma gap ergash va bosh gapdan iborat bo‘lar ekan, bu qismlar o‘rtasida, albatta, subordinativ bog‘lanish mavjud bo‘ladi. Biroq bu xususiyat, deylik, parataksemik qo‘shma gaplar uchun xos emas. Bilamizki, bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasida teng munosabat bo‘lib, teng bog‘lovchilar yoki vositalar(-u, -yu, -da yuklamalari; bo‘lsa, esa kabi so‘zlar) yordamida bog‘lanadi. Shunday ekan, biz tarjima jarayonida, ayniqsa, ingliz tilidagi badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida bunga e’tibor berishimiz zarur. Fikrimizcha, tarjimon imkon qadar asardagi gaplarni tuzilishiga zarar yetkazmay, masalan, ergashgan gapni ayni ko‘rinishda tarjima qilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biroq, ba’zan buning iloji yo‘q va bunga asosiy sabab ingliz va o‘zbek tillaridagi ergash gaplarning tuzilishida ba’zi allomorfik jihatlar mavjudligidir. Jumladan, ingliz tilida "A subordinate clause may follow, precede, or interrupt the principal clause"[1;281], ya’ni ergash gap bosh gapning o‘rtasida ham kelishi mumkin. Ammo o‘zbek tilida

gipotaksemik qo'shma gaplar asosan ma'lum qolipda bo'ladi: ergash gap bosh gapdan yo oldin yo keyin keladi. Ergash gap bosh gap o'rtasida kelish holatini deyarli umuman kuzatmaymiz. Bundan tashqari, ingliz tilidagi ba'zi conjunctions(bog'lovchilar) ning o'zbek tilida ayni muqobil varianti mavjud emasligi ham tarjima jarayonida muammo keltirib chiqarishi mumkin.

XULOSA

Demak, ushbu maqoladagi tahlillar natijasi o'laroq gipotaksemik qo'shma gap bilan boshqa gap turlari orasidagi ma'nodoshlik mavjudligini misollar keltirgan holda ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, ular o'rtasida tuzilishda ham farqli jihatlar mavjud bo'lib, bu ayrim nozik ma'no o'zgarishlariga olib kelar ekan hamda bular tarjimashunoslikda alohida ahamiyatga egadir. Ayniqsa, badiiy tarjimada badiiy asarning estetik zavq bag'ishlash vazifasini unutmagan holda tasvirni ifodali, ta'sirchan va obrazli bo'lishini ta'minlash lozim va bu jarayonda o'zbek va ingliz tillaridagi qo'shma gaplar o'rtasidagi allomorfik jihatlarni ham yoddan chiqarmaslik kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kaushanskaya V.I. et al. A Grammar of the English Language. - L., 1963
2. Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. – T., 1960.
3. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. – T., 1973.
4. O'tkir Yusupov. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. - T., 2013.
5. Harper Li. Mazaxchini o'ldirish.-T.2023
6. Harper Lee. To kill a mockingbird.1960.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T., 1995.
8. Umirov S. G'aybulloh as-Salom zamondoshlari xotirasida. – T.,2002.